

TIJORAT BANKLARINING FOND BOZORIDAGI FAOLIYATI

Avezov Ibrohim Ilhomovich - TDIU o'qituvchisi.

ibrohim6041@gmail.com

Qimmatli qog'ozlar bozori banklar uchun muhim rol o'ynaydi, ularga o'z faoliyatini diversifikatsiya qilish va daromadlarni oshirish imkoniyatini beradi. Banklar o'z kapitalini ko'paytirish va qo'shimcha foyda olish uchun fond bozorida aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa moliyaviy vositalarga mablag' qo'yishlari mumkin.

So'nggi yillarda mamlakatimizda tijorat banklarining fond bozorida faoliyatini yanada rivojlantirish uchun bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, so'nggi yillar davomida xukumat tashabbusi bilan etakchi banklari tomonidan xorijiy va milliy valyutalarda xalqaro qimmatli qog'ozlar chiqarilib, jahon birjalari orqali muvaffaqiyatli joylashtirildi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholini kichik va o'rta biznesga keng jalb qilishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida”gi qaroriga asosan yurtimizning yirik banklari tomonidan xalqaro qimmatli qog'ozlar bozorida evroobligatsiyalarning yangi chiqariluvini amalga oshirish ko'zda tutilishi ushbu islohotlarning davom etirilishidan darakdir¹. Ammo amalga oshirilayotgan islohotlarga qaramay banklarning qimmatli qog'ozlar bozorida operatsiyalar ulushi kichikligicha qolmoqda. Masalan, 12.01.2023 yil holatiga bank aktivlarining deyarli 75 foizini kreditlar tashkil qilishi, banklarning asosiy faoliyati xanuzgacha asosan kreditlar berishga qaratilgan bo'lib, qimmatli qog'ozlar bozorida investitsion faoliyatini sustligidan dalolat bermoqda².

“Banklar va bank faoliyati to'g'risida”gi O'zbekiston respublikasi qonuniga ko'ra tijorat banklari qimmatli qog'ozlarni chiqarish, xarid qilish, sotish, ularning hisobini yuritish va ularni saqlash, mijoz bilan tuzilgan shartnomaga binoan

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 15.11.2023 yildagi “Aholini kichik va o'rta biznesga keng jalb qilishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-366-sonli qarori [www: lex.uz](http://www.lex.uz)

² O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki 2023 yil 1 dekabrda byulleteni.

qimmatli qog'ozlarni boshqarish³, ular bilan boshqa operatsiyalarni bajarish kabi faoliyatlarni amalga oshiradi.


Umumiy jihatdan banklarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi operatsiyalarni quyidagilarga ajratishimiz mumkin⁴:

- Mijoz nomidan qimmatli qog'ozlarni sotib olish va sotish
- Portfelni boshqarish
- Investitsion portfellarni tanlash va tavsiyalar
- Qimmatli qog'ozlar bilan ta'minlangan kreditlar berish
- Repo operatsiyalarini amalga oshirish (qimmatli qog'ozlarni qayta sotib olish)
- Obligatsiyalar va aktsiyalar bilan operatsiyalarni amalga oshirish
- IPO va SPO o'tkazish (dastlabki va qo'shimcha ommaviy takliflar)
- Turli investitsiya fondlarida ishtirok etish
- Obligatsiya ssudalarini chiqarish va ularga xizmat ko'rsatishni tashkil etish
- Qimmatli qog'ozlar asosida hosila vositalari bilan operatsiyalarni amalga oshirish.

O'zbekiston Respublikasi bank-moliya tizimida investitsiya banklarini tashkil qilish mexanizmlari, vositalarini ishlab chiqish, amaldagi qimmatli qog'ozlar bozorini samarali tartibga solish uchun mavjud qonuniy-me'yoriy xujjatlarga o'zgartirishlar kiritish, fond bozori uchun mutlaqo yangi infratuzilmani shakllantirish, unda ishtirok etuvchilar faoliyat yuritishda va tashkil etishda yangi huquqiy normativlarni qo'llash dolzarb bo'lib qolmoqda.

³ O'zbekiston Respublikasi "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi qonuni, 5-modda.

⁴ S.Elmirzayev va boshqalar. Moliya bozori. //: Darslik, – T.: "Iqtisod-moliya", 2019. – 222 b.



1-rasm. Sohalar bo'yicha 2022 yilda tuzilgan bitimlar soni, dona⁵

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi ishtiroki ancha past darajada, buni tijorat banklarning aktivlari tarkibida investitsiyalarning 1,5 foizni tashkil etishidan ham anglashimiz mumkin. 1-rasmda keltirilgan ma'lumotlari shuni ko'rsatmoqdaki, 2022 yildagi sohalar bo'yicha jami tuzilgan bitimlar sonining 47.94% tijorat banklariga to'g'ri keladi, bu birja bitimlari umumiy sonining 32,26 foizini tashkil etgan⁶.

Qimmatli qog'ozlar bozori rivojlangan mamlakatlar banklari faoliyatini tahlil qilib ko'rsak, ularga nisbatan mamlakatimiz tijorat banklarining investitsion faoliyati qoniqarsiz darajada, demak mamlakatimizdagi banklar bu operatsiya orqali aktivlarni diversifikatsiyalash va risklarni kamaytirish imkoniyatlaridan samarali darajada foydalana olmayapti, buga qator sabablar ta'sir qiladi, ularning asosiylari sifatida qimmatli qog'ozlar bozori infratuzilmasi yetarli darajada rivojlanmaganligi, shu bilan bir qatorda banklarning qimmatli qog'ozlar bozoridagi majburiyat va huquqlarini himoya qiluvchi huquqiy asoslar yetarli emasligini keltirib o'tishimiz mumkin.

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, tijorat banklari mamlakatimiz qimmatli qog'ozlar bozorining faol ishtirokchilari bo'lishiga qaramay, uning aktivlari tarkibida qimmatli qog'ozlarga kiritilgan investitsiyalar ulushi kichikligicha qolmoqda. Shuningdek, so'nggi yillarda bar qator banklar tomonidan xalqaro moliya bozorida o'z evroobligatsiyalarini joylashtirish amaliyoti kengayapti, ammo banklar

⁵ "Toshkent" Respublika fond birjasi rasmiy ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

⁶ 2022 yil bo'yicha birjaviy tahlil. www.uzse.uz

tomonidan ichki qimmatli qog'ozlar bozorida qarz qimmatli qog'ozlarini chiqarish amaliyoti kamayib ketdi.

Banklarning qimmatli qog'ozlar bozorida faolligini oshirish uchun quyidagi tavsiyalarni taklif qilish mumkin:

- Qimmatli qog'ozlarga bo'lgan talabni oshirish va bozorda ularning savdosini faollashtirish maqsadida banklarda o'z investitsiya bo'linmalarini rivojlantirish.

- Xodimlarning malakasini oshirish va qimmatli qog'ozlar bozorini rivojlantirishga hissa qo'shish maqsadida bank xodimlarini qimmatli qog'ozlar bilan ishlash bo'yicha o'quv dasturlarini o'tkazish.

- Banklarning turli investitsiya loyihalarida ishtirok etishi va mijozlar va investorlarni jalb qilish uchun investitsiya fondlarini yaratish.

- Qimmatli qog'ozlarni taklif qilishni kengaytirish uchun moliya bozorining boshqa ishtirokchilari, masalan, brokerlik firmalari va investitsiya fondlari bilan hamkorlik qilish.

- Yangi mijozlarni jalb qilish va bozorda savdo hajmini oshirish uchun qimmatli qog'ozlar asosida innovatsion moliyaviy mahsulotlarni yaratish.

Umuman olganda, banklar uchun fond bozori keng investitsiya imkoniyatlaridan foydalanish imkonini beradi, risklarni kamaytirishga yordam beradi va asoslangan qarorlar qabul qilish uchun zarur ma'lumotlarni taqdim etadi. Qimmatli qog'ozlar bozori banklar faoliyatining ajralmas qismi bo'lib, ularning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishida asosiy rol o'ynaydi.